

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 26 - oktabr

370-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri hokimining 2023-yil 15-iyuldagi 01-50/01-1353-sonli va Qoraqalpog'iston Respublikasi Soliq boshqarmasining 2023-yil 7-iyuldagi 12-41200-sonli xatlarini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri hokimining 2023-yil 15-iyuldagi 01-50/01-1353-sonli va Qoraqalpog'iston Respublikasi Soliq boshqarmasining 2023-yil 7-iyuldagi 12-41200-sonli xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Soliq boshqarmasining egaligida bo'lgan Nukus shahri "Hawa jollari" MFY hududidagi 0.24 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni Nukus shahar hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) Nukus shahar hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga qonunshlikka muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarin ko'rsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**